



TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G'oyalar



DAVLAT SEKTORI SUB'EKLARIDA MOLIYALASHTIRISH MANBALARI BO'YICHA BUDJET DAROMADLARDAN SAMARALI FOYDALANISH ZARURATI

Igamberdiyev Sahobiddin Xatam o`g`li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. *Jahon miqyosida davlat sektori sub'ektlarining barqaror moddiy va moliyaviy resurslarga ega bo'lishida turli moliyalashtirish manbalaridan foydalanish, davlat sektori sub'ektlarida mavjud mablag'lardan oqilona foydalanishda buxgalteriya hisobi va auditning xalqaro standartlariga asosan amalga oshirishga e'tibor qaratilmoqda. Buxgalterlar xalqaro assosiasiysi hisobotiga ko'ra, "Evropa davlatlarida davlat sektori sub'ektlari davlat byudjeti mablag'lari va byudjetdan tashqari mablag'lar hisobidan moliyalashtirishda ustuvorlikka ega bo'lib, ularda hisobotlarning axborot imkoniyatlari davlat sektorida moliyaviy hisobot xalqaro standartlarini to'g'ridan-to'g'ri qabul qilish bilan chambarchas bog'liq.*

Kalit so`zlar: *davlat sektori, moliyalashtirish manbalari, budjet daromadlari, samarali foydalanish, moliyaviy boshqaruv, resurslarni taqsimlash, davlat byudjeti, moliyaviy barqarorlik, iqtisodiy samaradorlik*

Kirish. O'zbekistonda davlat sektori sub'ektlari faoliyatini rivojlantirish, xizmatlar sifatini yaxshilash, davlat sektori sub'ektlarining moliyaviy jihatdan barqarorligini ta'minlash, "muassasalarda byudjet jarayonining shaffofligini yanada oshirish va uning ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirish, byudjetdan moliyalashtirish, hisob va hisobot mexanizmini takomillashtirish, vazirlik va idoralarning bo'y sunuvidagi muassasalarda byudjet intizomini mustahkamlash borasidagi mas'uliyatini oshirish, shuningdek, zamonaviy axborot texnologiyalari va xalqaro e'tirof etilgan moliyaviy nazorat standartlarini joriy qilish»²⁹, daromadlar hisobini yuritishning zaruriyatini yuzaga keltiradi. Davlat sektori sub'ektlarida daromadlarni tan olish, baholash va moliyaviy hisobotlarda aks ettirish xalqaro hisob standartlari talablariga muvofiq amalga oshirish ham daromadlarni hisobga olish zaruratini yanada dolzarb ekanligidan dalolat beradi.

Budjet tizimi budjetlari daromadlarining tushishini ta'minlash va xarajatlarini amalga oshirish bilan bog'liq operatsiyalarni hisobga olishni nazarda tutadigan jarayon - davlat budjetini ijro etish hisoblanadi. Budjet tasnifiga muvofiq tuzilgan daromadlar va xarajatlar prochnozi ularning tasdiqlangan parametrlariga muvofiq daromadlar va xarajatlar parametrlari ijrosining monitoringini ta'minlash maqsadida tuziladi. Daromadlar va

²⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 21 avgustdag'i PQ-3231-son "Ta'lim va tibbiyot muassasalarini moliyalashtirish mexanizmini hamda davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi qarori.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



xarajatlar yoyilmasi tegishli moliya yili uchun Davlat budgeti to’g’risidagi qonun hamda mahalliy budgetlarni tasdiqlash to’g’risidagi qarorlar bilan tasdiqlangan budgetlar miqdorlariga muvofiq shakllantiriladi. Bunda, soliq organlari tomonidan 1-fevralga qadar har bir soliq turi bo'yicha tasdiqlangan yillik budgetlar miqdorlarining balanslilikni ta'minlagan holdagi oylik va choraklik taqsimoti yuzasidan takliflar iqtisodiyot va moliya organlariga taqdim etiladi.³⁰

Respublikamiz budget tashkilotlarida samarali molivayi boshqaruv budget tashkilotlarining barqaror ishlashi va xizmat ko'rsatishni ta'minlash uchun hal qiluvchi omil hisoblanadi. Budget tashkilotlarida mablag'larni aniq hisobga olish shaffoflik, fiskal javobgarlik va normativ-huquqiy xujjatlarga rioya qilishni ta'minlash juda muhimdir. Biroq, budget mablag'larini boshqarishda aniqlik va ishonchlilikka bo'lgan ehtiyojga qaramay, budget tashkilotlari buxgalteriya yurutish amaliyotini maqbullashtirishda tez-tez jiddiy muammolarga duch kelinmoqda. Ushbu muammolar budget mablaglari hisobiga amalga oshiradigan xarajatlarining xilma-xilligi va budget mablag'laridan foydalanuvchilarning hisobdorligi va ushbu mablag'lardan samarali foydalanishi bilan ifodalanadi.

Davlat sektori sub'ektlarida moliyalashtirish manbalari bo'yicha daromadlar va ularning turlarining xilma-xilligi hamda biri boshqasidan keskin farq qilishi ham davlat sektori sub'ektlarida turli moliyalashtirish manbalariga oid daromadlarni shakllantirishning zarurligi bilan asoslanadi. Xususan, davlat sektori sub'ektlari daromadlari asosan ikki yo`nalish budget va budget bo'lмаган daromadlardan shakllanadi. Yillik tahlillar bu daromadlarning dinamikasini aniqlashda yordam beradi. Daromadlarni boshqarishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, xususan, budget tashkilotlari daromadlarini boshqarish "DMBAT", "UZASBO", kabi dasturiy tizimlarning joriy qilinganligi samaradorlikni oshirishga olib kelmoqda. Ushbu tizimlar hisob-kitob va tahlil jarayonlarini avtomatlashtiradi.

Davlat sektori sub'ektlari daromadlarining ijrosi hisobini monitoring qilish va tahlil qilish usullari molivayi shaffoflikni oshiradi. Molivayi hisobotlar, oylik va yillik tahlillar daromadlarning to'g'ri boshqarilayotganligini tasdiqlaydi. Bu tashkilot resurslarini boshqarish jarayonida xalqaro amaliyotlarni joriy etishga imkon beradi. Bu borada yurtimizda keng ko'lamlı ishlar olib borilmoqda. Tashkilot daromadlarini tahlil qilish uchun tushumlar va boshqa molivayi manbalarni o'rganish muhimdir.

Xulosa qilib aytganda davlat sektori sub'ektlarining bir qancha daromad turlarini shakllantirishi, daromadlarni buxgalteriya hisobida to'g'ri tan olinishi hamda baholanishi qolaversa molivayi hisobotlarda ochiq va shaffof aks ettirilishi ushbu sub'ektlarning molivayi barfarorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Buni esa o'z navbatida, davlat

³⁰ O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirining «O'zbekiston Respublikasi Davlat budgetini tuzish va ijro etish qoidalarini tasdiqlash haqida»gi buyrug'i, 07.10.2024 yilda ro'yxatdan o'tgan, ro'yxat raqami 3558





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



byudjetidan moliyalashtirish ulushini qisqartirishga qaratilgan muhim omillardan biri deb hisoblash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 21 avgustdagи PQ-3231-son "Ta’lim va tibbiyot muassasalarini moliyalashtirish mexanizmini hamda davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish to‘g’risida"gi qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirining «O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetini tuzish va ijro etish qoidalarini tasdiqlash haqida»gi buyrug‘i, 07.10.2024 yilda ro‘yxatdan o‘tgan, ro‘yxat raqami 3558

